

SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY JAVOBGARLIGI

Meliyeva Parvina

Termiz davlat pedagogika instituti Yuridik fakulteti
Sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada so'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olmoqda. Hozirgi kunda sun'iy intellektdan foydalanish har bir davlat va uning aholisi uchun yangilik emas. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunda nafaqat oddiy kundalik vazifalarni avtomatlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki intellektual mulk obyektlarini yaratish, tibbiyotda tashxis qo'yish, sud amaliyotida tahliliy vosita sifatida va boshqa sohalarda ham qo'llanilmoqda. Ammo, ushbu texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda, undan foydalanish natijasida kelib chiqadigan huquqiy javobgarlik masalasi ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, texnologiya, statistik ma'lumotlar, strategik hujjatlar, markirovlash, risk, OAV, interaktiv davlat xizmatlari, intellektual tizim, huquqiy masala, milliy qonunchilik.

Sun'iy intellekt tizimi-bu ma'lum bir fan sohalari bilan bog'liq ijodiy muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan, bilimlari intellektual tizim xotirasida saqlanadigan dasturiy-apparat majmuasidir. Bunday tizim vaziyatni tahlil qilish va muayyan maqsadlarga erishish uchun muayyan darajadi avtonomiya bilan harakatlarni amalga oshirishda oqilona xatti-harakatni namoyish etadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari jadal rivojlanayotgani va har qanday texnologiya kabi jamiyat hayotiga yangi sharoitlar, hal qilinishi kerak bo'lgan etik va huquqiy masalalarni yuzaga keltirishi hech kimga sir emas. 2021-yilga kelib 30

ga yaqin davlat sun'iy intellekt texnologiyalari sohasida o'z strategik hujjatlarini qabul qilgan edi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi - davr talabi ekanligini inobatga olib, davlatimiz rahbari 2021-yil 17-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjat SI texnologiyalarining kelgusi rivoji uchun huquqiy asos yaratdi, uning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

"Raqamli O'zbekiston-2030" Strategiyasiga muvofiq, shuningdek, mamlakatda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ulardan keng foydalanish, raqamli ma'lumotlarning yuqori sifati va hamma foydalana olishini ta'minlash, belgilangan sohada malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadidagi qarori bilan 2021-2022 yillarda Sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo'lib, u normativ-huquqiy bazani yaratish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan.

Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida:

-sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini 1,5 milliard dollarga yetkazish;

-yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga oshirish;

-hukumatning sun'iy intellektga tayyorgarlik indeksida O'zbekistonning birinchi 50 ta ovrindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish va boshqa ko'plab maqsad va vazifalar qo'yilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda yer yuzida 1 milliardga yaqin foydalanuvchi turli shakldagi sun'iy intellekt chatbotlaridan foydalanmoqda. 2025-yilgi hisob-kitoblarga muvofiq, sun'iy intellekt bozori hajmi 15,57 milliard dollargacha baholangan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2029-yilga kelib, 46,64 milliard dollargacha oshishi taxmin qilinmoqda. Ushbu raqamlar sun'iy intellektning global iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlardagi ahamiyati tobora ortib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

Bugungi kunda sun'iy intellektdan intellektual mulk obyektlarini yaratish, tashxis qo'yish, sud amaliyotida tahliliy vosita sifatida foydalanish, bank va moliya sektorida risklarni baholash, ta'limda shaxsiylashtirilgan o'qitish kabi murakkab sohalarda ham foydalanilmoqda. Ammo, ushbu texnologik taraqqiyot bilan birga, undan foydalanish natijasida kelib chiqadigan huquqiy javobgarlik masalasi ham tobora dolzarb ahamiyatga egaligi ham barchamizga ma'lum.

Ayniqsa, SI tomonidan qabul qilingan yoki tavsiya etilgan qarorlar oqibatida shaxsga, jamiyatga yoki mulkka zarar yetkazilgan holatlarda, javobgarlik kimning zimmasiga yuklatilishi kerakligi masalasi huquqshunos olimlar va amaliyotchilar o'rtasida jiddiy munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Chunki an'anaviy fuqarolik-huquqiy munosabatlarda zarar yetkazuvchi subyekt odatda aniq shaxs yoki tashkilot bo'lsa, sun'iy intellekt bilan bog'liq holatlarda ushbu subyektni aniqlash ancha murakkablashadi.

Ba'zi huquqshunoslar sun'iy intellektni ishlab chiqqan tashkilotni, boshqalari esa undan foydalangan shaxsni, yana bir guruh olimlar esa algoritmnini ishlab chiqqan dasturchilarni javobgar sifatida belgilashni taklif etishmoqda.

O'zbekistonda deputatlar tomonidan qabul qilingan loyihada sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga zid ravishda ishlov berish va uni ijtimoiy tarmoqlar va internetda tarqatmaslik majburiyati belgilangan. Buning uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash taklif etildi.

Shu bilan birga, har qanday texnologiya bo'lmasin, insonning huquq va erkinliklariga daxl qilmasligi kerak. Shu ma'noda qonun loyihasida sun'iy intellektdan foydalanib yaratilgan axborot resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlari insonga, uning hayoti, sog'ligi, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazmasligi va boshqa ajralmas huquqlarini buzmasligiga oid talab belgilandi. Agar sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlov berilgan bo'lsa, javobgarlik belgilanadi.

Shu bilan birga, insonning huquq va erkinligiga aloqador yuridik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda faqat sun'iy intellektdan foydalanib yaratilgan axborot resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ishlaydigan axborot tizimlari xulosasiga tayanib qolish mumkin emasligi o'z aksini topdi. Inson huquqlariga oid yuridik ko'rinishidagi har qanday texnologiya emas, balki mutaxassis tomonidan qabul qilinishi lozim.

Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan mahsulotlarni OAV yoki internetga joylashtirishda ularni markirovlash talabi kiritilishi mumkin. SI dan foydalangan holda shaxsga doir ma'lumotlarga noqonuniy ishlov bergan va tarqatganlarning ish

qurollari musodara qilinib, 15 sutkagacha qamoqqa olinadi yoki 37,5 mln soʻmgacha jarimaga tortilishi keltirilgan.

Xususan 2026-yildagi OʻRQ-1115-son Qonun bilan sunʼiy intellektdan foydalanish bilan bogʻliq munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritildi.

-sunʼiy intellekt tushunchasining taʼrifi va ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari;

-axborot resurslarini yaratishda va axborot tizimlari ishida sunʼiy intellektdan foydalanishning umumiy qoidalarini belgilash;

-sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda shaxsga doir maʼlumotlarga noqonuniy ishlov berganlik uchun maʼmuriy javobgarlikni joriy etish.

Sunʼiy intellektdan foydalanish natijasida kelib chiqadigan javobgarlikni fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalasi bugungi kunda ochiq va murakkab huquqiy muammo boʻlib qolmoqda. Mavjud yondashuvlar, yaʼni ishlab chiquvchi tashkilotlarning javobgarligi, algoritm yaratuvchilarning javobgarligi va foydalanuvchilarning javobgarligi kabilar har biri muayyan holatlarda asosli boʻlishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, albatta bugungi taraqqiyot davrida butun dunyo sunʼiy intellektdan keng koʻlamda foydalanmoqda. Yurtimizda ham ushbu texnologiyadan samarali foydalanishning dastlabki huquqiy asoslarini yaratishga ehtiyoj mavjud. Shu maʼnoda ushbu qonun loyihasidan asosiy maqsad sunʼiy intellektdan foydalanishni yanada rivojlantirish, uni qoʻllash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solishdan iborat. Kelajakda sunʼiy intellekt bilan bogʻliq javobgarlik masalasini tartibga solishda kompleks

yondashuv, ya'ni huquqiy, texnik va axloqiy mexanizmlarni birgalikda qo'llash zarurati yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu esa nafaqat milliy qonunchilikni takomillashtirish, balki xalqaro hamkorlik va ilmiy tadqiqotlarni ham kuchaytirishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Y. Bo'riyev. Sun'iy intellektdan foydalanishda javobgarlik masalalari.
2. [https://legalclinic.uz/tpost/3c09323ax1-suniy-intellekt-tizimlari-taraqqiyotining huquqiy tahdidlari](https://legalclinic.uz/tpost/3c09323ax1-suniy-intellekt-tizimlari-taraqqiyotining-huquqiy-tahdidlari).
3. <https://yuristpro.uz/suniy-intellektdan-foydalanishda-javobgarlik-masalalari/>.
4. L. Abduazimova. Sun'iy intellektdan foydalanishdagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik joriy etiladi. 2026.
5. F. Abdusattorov. O'zbekistonda sun'iy intellekt haqida qonun qabul qilinmoqda. Unda nima yozilgan? 2025.
6. I. A. Filipova. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish. Samarqand. 2022.
7. <https://paradigma.uz/uz/news/suniy-intellektdan-foydalanishning-huquqiy-asoslari-yaratildi-video-1980>.